

## Yer va suv - ilm ham amal talabgori

Ilm va amalning uyg'unligi har qanday sohada ulkan yutuq va samaradorlikni ta'minlashi aniq. Xuddi shu maqsadda tuproq bilan ishlay bilish, yer bilan sirlasha olish ham katta malaka va bilimni talab etadi. Ana shu ma'noda 2018 yil 25 dekabr kuni TIKXMMI dotsenti B. Matyaqubov va dos.v.b. K.Kamilovlar, O'zbekiston Respublikasi Suv xo'jaligi vazirligi va Shveysariya rivojlantirish va hamkorlik agentligi tomonidan tashkil qilingan "O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi" doirasida Sirdaryo viloyatida 2019 yil hosili uchun sug'oriladigan yerlarni sho'r yuvishga tayyorlash, sho'rini yuvish va yerlarni meliorativ barqarorligini ta'minlash tadbirlarining bajarilishi bo'yicha Respublika ko'rgazmali seminarida ma'ruza bilan qatnashishdi.

Ko'rgazmali seminarda 100dan ortiq mutaxassislar qatnashishdi, jumladan Suv xo'jaligi vazirligi xodimlari, Respublikadagi ITXB va Meliorativ ekspeditsiya boshliqlari, kollej direktorlari, ilmiy tekshirish institutlari va TIQXMMI professor-o'qituvchilari hamda Sirdaryo viloyatidagi Suv iste'molchilari uyushmasi mutaxassislari ishtirok etishdi. Ko'rgazmali seminar yuqori saviyada dala sharoitida savol-javoblarga boy ruhda o'tkazildi.



**“Irrigatsiya va melioratsiya” kafedresi dotsenti Baxtiyar Matyakubov axboroti**

**Institut Matbuot kotibi Rahimboy Jumaniyozov**